



BIZNES SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSION YECHIMLARNING O'RNI

Omonqulov Bekzod Tursunali o'g'li

Qo'qon universiteti Andijon filiali Ta'lim sifatini nazorat qilish departamenti bosh
mutaxassisi

Annotatsiya: Yurtimizda fan, ta'lim va ishlab chiqarishning integratsiyalashuvini yanada chuqurlashtirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining innovatsion rivojlanish yo'llarini ishlab chiqish orqali ilm-fan va ishlab chiqarish o'rtasida o'zaro foydali aloqalarni mustahkamlashga bo'lgan e'tibor yildan-yilga oshib bormoqda. Mazkur maqolada ham kichik biznesni rivojlantirishda innovatsion faoliyat, innovatsion texnologiyaning o'rni xususida so'z boradi.

Kalit so'zlar: iqtisodiyot, innovatsion faoliyat, innovatsion texnologiya, kichik biznesni rivojlantirish, innovatsion rivojlanish, integratsiyalashuv.

Аннотация: с каждым годом все больше внимания уделяется укреплению взаимовыгодных связей между наукой и производством путем дальнейшего углубления интеграции науки, образования и производства в нашей стране, разработки инновационных путей развития малого бизнеса и субъектов частного предпринимательства. В данной статье также рассматривается роль инновационной деятельности, инновационных технологий в развитии малого бизнеса.

Ключевые слова: экономика, инновационная деятельность, инновационные технологии, развитие малого бизнеса, инновационное развитие, интеграция.

Annotation: the emphasis on strengthening mutually beneficial relations between science and production is increasing year after year by further deepening the integration



of Science, Education and production in our country, developing ways of innovative development of small business and private business entities. This article will also talk about the role of innovative activities and innovative technology in the development of small businesses.

Keywords: economy, innovation, innovative technology, small business development, innovative development, integration.

Mamlakatimiz iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishning asosiy omillaridan biri innovatsiyalardir. Innovatsion texnologiyalar yordamida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarini chuqur qayta tuzish va ish unumdorligini yanada oshirish mumkin. Ma'lumki, bugungi kunda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasi nafaqat milliy iqtisodiyotning o'sish sur'atlarini jadallashtirishda, balki bugungi kun uchun dolzarb hisoblangan aholini ish bilan ta'minlash va turmush darajasini oshirish masalalarini hal etishda ham etakchi o'rin tutmoqda.

Shu asosida mamlakatimizda kichik biznes sohasidagi qilinishi dolzarb ishlar belgilab berilganligi, sohada marketing faoliyatini yanada takomillashtirish, kredit liniyalarini iste'molchilarga to'g'ri yo'naltirish tizimini joriy qilish, kredit liniyalarini iste'molchilarga yetkazishda raqamli marketing texnologiyalaridan samarali foydalanish yo'llari maqsad qilib olingan. Darhaqiqat, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning izchil rivojlanib borishini ta'minlash orqali mamlakatimizda jamiyatimizning ijtimoiy-siyosiy tayanchi va poydevori bo'lgan o'rta sinfnig shakllanishiga va uning tobora mustahkam bo'lib borishiga erishilmoqda.

Bugungi kunda iqtisodiyotimizning asosiy tarmoqlarini modernizatsiya qilish va texnik yangilash, mamlakatimizning yangi marralarni egallashi uchun kuchli turtki beradigan va jahon bozorida raqobatdoshligini ta'minlaydigan zamonaviy innovatsiya texnologiyalarini joriy qilish bo'yicha maqsadli loyihalar amalga oshirilmoqda. Kichik biznes subyektlari eksport salohiyatini yanadakengaytirish, ularga zamonaviy, chet-el bozorlarida raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirishda va uni eksportga chiqarishda zarur huquqiy, moliyaviy va tashkiliy yordam ko'rsatish, mamlakatimizning



eksport qiluvchi kichik biznes subektlarining tashqi bozor konyukturasi o'zgarishlari xavf-xatardan ishonchli himoya qilishni taminlash maqsadida "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subektlarining eksportini qullab-quvvatlash jamgarmasi" tashkil etildi.

Kichik biznes sub'yektlarida yangi texnika va innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqarishga yuqori tavakkalchiliklarsiz joriy etish, yangi ishlab chiqarish kuvvatlarini barpo etib, undan samarali foydalanish jarayoni yirik korxonalariga nisbatan tezroq ro'yobga chiqadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan so'nggi yillarda kichik biznes sohasi bo'yicha qabul qilinadigan davlat dasturida asosiy ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida yuqori texnologiyalarni talab etadigan iqtisodiyot tarmoqlarida innovatsion texnologiyalarga asoslangan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga keng yo'l ochib berishga alohida e'tibor qaratish zarurligi ko'rsatib o'tsak maqsadga muvofiq.

Hozirgi vaqtda yurtimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik asosan savdosotiq, xizmat va aloqa sohasida, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash bo'yicha ko'proq rivoj topmoqda.

Jahon iqtisodiyoti globallashuvi va raqobat muhiti kuchayib borishi, mahsulotlar hayotiylik davri keskin qisqarishi, bozor kon'yunkturasi va iste'molchilar ehtiyojlari tez o'zgarishi jarayonlari bugungi kunda har bir xo'jalik yurituvchi sub'yektdan raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishning tashkiliy iqtisodiy mexanizmlarini ishlab chiqishni hayotiy zaruratga aylantirmoqda. Bu esa ularning innovatsion faoliyatini rivojlantirish va samarali boshqarishni talab etmoqda.

Kichik biznes sub'yektlarining innovatsion faoliyatini rivojlantirishdan maqsad butun ishlabchiqarish tizimini yangilash hisobiga ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, ilmiytexnik, intellektual va iqtisodiy salohiyatdan samarali foydalanish asosida soha raqobatbardoshligini oshirishdan iborat.

Adabiyotlar:



1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi” PF-4947-son Farmoni

2.Ergashxodjaeva Sh.J., Qosimova M.S., Yusupov M.A. Marketing. Darslik. –T.TDIU, 2011.

3.Marketing management/ Philip Kotler, Kevin Lane Keller.–14th ed. Pearson Education, Inc. 20124.Marketing Research: Tools and Techniques. Nigel Bradley. 3-rd edition, Oxford University Press. 2013.